



# LITSENZIYALASH JARAYONI ELEKTRONLASHTIRILDI



Manba: VMQ-80-son, 21.02.2022-y.

@huquqiyaxborot

## Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida yagona nizom tasdiqlandi

**28 ta litsenziyalanadigan** faoliyat turlarining pasportlari tasdiqlandi

Yagona nizomda tartib-taomillar bo'yicha **umumiy qoidalar** belgilandi

Endilikda barcha arizalar **elektron tarzda** "Litsenziya" axborot tizimi (*license.gov.uz*) orqali **dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 soat davomida** qabul qilinadi

Fuqarolarning davlat organlariga "borish" va "kutish" kabi **ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo'yildi**

**Litsenziya olish uchun ariza** vakolatli organga "Litsenziya" AT yoki YIDXP orqali taqdim etiladi

Litsenziya olishda **talabgorning boshqa kelishiladigan organlardan xulosasini olib, arizaga ilova qilish amaliyoti bekor qilindi**

**"Bir darcha" tamoyili** asosida litsenziyalovchi organning "Litsenziya" AT orqali tegishli xulosalarni boshqa organlardan o'zi oladi, xulosa o'z vaqtida taqdim etilmasa, **ijobiy xulosa** olingan deb hisoblanadi

Litsenziyalovchi hujjatlarning amal qilishini to'xtatib turish **litsenziyalovchi organ** yoki **sud** tomonidan amalga oshiriladi

Mazkur qaror **2022-yil 1-martdan** kuchga kiradi.